Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

03 October 2026

UDK 1

AYRIS MYORDOK IJODIDA EKZISTENSIALIZM VA NEOPLATONIZMNING FALSAFIY SINTEZI

Feruza Muzaffarovna Shapsanova*

✉ shapsanovaferuza@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz yozuvchisi va faylasufi Ayris Myordok badiiy ijodida ekzistensializm va neoplatonizmning o‘zaro munosabati hamda ushbu falsafiy qarashlarning tadrijiy rivoji tahlil qilinadi. Yozuvchining inson erkinligi, tanlov, mas’uliyat, egoizm, ezgulik, muhabbat va ma’naviy komillik haqidagi qarashlari uning romanlari hamda falsafiy asarlari asosida yoritiladi. Tadqiqotda “unselfing” konsepsiyasi, quyi va yuqori Eros o‘rtasidagi transformatsiya hamda san’at va go‘zallikning inson ruhiy olamiga ta’siri kabi qarashlarga alohida e’tibor beriladi. Myordok ijodida ekzistensial erkinlikning mutlaq individualizm sifatidagi talqini tanqid qilinib, insonning haqiqiy erkinligi o‘zlik va egoistik mayllardan chekinish, haqiqatni anglash va shartsiz muhabbatga intilish bilan bog‘lanishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar

Ayris Myordok, ekzistensializm, neoplatonizm, ekzistensial erkinlik, “unselfing”, Eros, ezgulik, muhabbat, egoizm, san’at, go‘zallik, axloqiy komillik.

DOI: 10.5281/zenodo.23278020

Kirish

XX asrning ikkinchi yarmida ekzistensializm va falsafiy roman taraqqiyotida ayol ijodkorlarning hissasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Fransiyada Simona de-Bovar (1908-1986), Germaniyada Xanna Arendt (1906-1975), Angliyada Ayris Myordok (1919-1999) kabi ijodkorlar adabiyot va falsafa o‘rtasidagi munosabatni yangi mazmun bilan boyitdilar. Myordokning o‘ziga xosligi shundaki, u ekzistensializmning inson majvudligi, erkinligi va tanlovi bilan bog‘liq masalalarini Platon va neoplatonizmning ezgulik, go‘zallik va muhabbat haqidagi qarashlari bilan uyg‘unlashtirdi.

Myordokning ta’lim sohasi falsafa bo‘lsa-da, uning yaratgan romanlari badiiylikning iste’dod va xosiyat, an’ana va yangilik, maxorat va ta’sirdorlik mezonlariga mos keladi. Muallif tomonidan yozilgan romanlar o‘zida an’ana va novatorlikni mujassam qiladi, badiiy ta’sirdorlikni yo‘qotmagan holda, ekzistensial g‘oyalar va odob-axloq masalalari kabi falsafiy muammolarga yechim izlaydi hamda hayotni haqqoniy yorqin obrazlar bilan tasvirlaydi. Yozuvchi o‘zini “falsafiy romannavis” deb atashdan ko‘ra realist yozuvchi sifatida ko‘rgan va hayotiy voqealarni ko‘pincha tragikomik tarzda tasvirlagan. Shunga qaramay, uning romanlari negizida insoning axloqiy yuksalishi va ruhiy komillikka erishishi kabi falsafiy masalalar yotadi. Shu bois Myordokning badiiy olamini uning falsafiy qarashlaridan ajratib o‘rganish to‘laqonli natija bermaydi.

Materiallar va usullar

Faylasuflik va yozuvchilik kasblarini barobar maromiga yetkazgan Myordok, avvalo, insonning o‘z mavjudligini qanday anglashiga va tanlov oldida qanday qaror qabul qilishiga qaratilgan falsafiy qarashlarni ilgari suradi. Yozuvchini qiziqtirgan asosiy masalalardan biri – inson quyi Eros, ya’ni egoistik istak va nafsga asoslangan mayllarni qanday qilib shartsiz muhabbatga aylantira olishi hamda tanlov vaqtida to‘g‘ri qaror

qila olish masalasidir. Shu nuqtada Myordokning "unselfing" neologizmi muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Mazkur atama o'zlik nafsini jilovlash ma'nosini anglatib, e'tibor hayotga va insonlarga burib qo'yilganda shaxs o'zlikdan, va bu orqali ID yoki quyi Eros tabiati deb ataluvchi hirsdan uzoqlashadi [2]. Inson o'z "men"iga berilib ketganida, borliqni ham o'z istaklari orqali idrok etadi. Aksincha, diqqatning tashqi olamga yo'naltirilishi egoistik mayllarni jilovlashga imkon beradi.

Myordokning badiy qahramonlari orasida o'zlikka beriluvchanlik va atrofidagi insonlarni o'z xohish-istaklari asosida ideallashtirish holati kuzatiladi. "To'r ostida" romanidagi Jeyk, "Yakkashox"dagi Effinghem hamda "Italyan qiz" romanidagi Edmund obrazlari mazkur holatning turli ko'rinishlarini ifoda etadi. Bunday qahramonlar boshqa insonni uning haqiqiy mavjudligidan ko'ra o'z tasavvurlarining mahsuli sifatida ko'rishga moyil bo'ladilar.

Adibaning ekzistensializmga munosabati, ayniqsa, "erkinlik" tushunchasining talqinida yaqqol ko'rinadi. Ekzistensializm insonning erkin tanlovini muhim falsafiy muammo sifatida ilgari surgan bo'lsa, Myordok mutlaq erkinlik g'oyasiga tanqidiy yondashadi. Uning fikricha, inson hayotida u to'liq nazorat qila olmaydigan ko'plab hodisalar mavjud. Inson hayotga "uloqtirilgan" bo'lib, unga berilgan ong va idrok haqiqatni anglashga xizmat qilishi kerak. Shu sababli haqiqiy erkinlik faqat tanlov imkoniyatidan emas, balki mavjudlikni xolis idrok etishdan kelib chiqadi. Shu jihatdan Myordok ekzistensializmning erkinlik haqidagi qarashlarini axloqiy mazmun bilan boyitadi. Uning falsafasida jamiyatning axloqiy normalarini butunlay inkor etmagan holda erkinlikka erishish mumkinligi haqidagi qarash ustuvorlik qiladi. Yozuvchi uchun inson o'z tanlovlari uchun mas'ul bo'lishi, shu bilan birga, boshqa insonlarning mavjudligi va tanlovlarini ham hurmat qilishi lozim.

Natijalar va muhokama

Muallif ijodining tadrijiy rivojida ekzistensializmning dastlabki ta'siridan neoplatonik qarashlarga tomon siljish kuzatiladi. "Sehrgardan chekinib", "Yakkashox" va "Italyan qiz" kabi romanlarda ekzsitensial erkinlikning axloqiy chegaralardan uzilib qolishi natijasida insonning nafs va xudbinlik ta'sirida qolishi tasvirlanadi. Dinsiz yoki an'anaviy ma'naviy yo'l-yo'riqlardan mahrum bo'lgan shaxs o'z erkinligini mutlaq deb qabul qilganda, uning tanlovi boshqa insonlarga nisbatan zo'ravonlik, yoki axloqiy chegaralarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Myordok bunday holatga qarshi Platonning "ezgulik" g'oyasini qo'yadi. Shu orqali uning neoplatonik falsafasi ijodining muhim konseptual asosiga aylanadi. Yozuvchining fikricha, inson o'z ruhiy energiyasini sarob xayollardan real borliqqa yo'naltirishi orqali ma'naviy najotga erishishi mumkin:

"The soul must be saved entire by the redirection of its energy away from selfish fantasy toward reality." [3].

Demak, Myordok falsafasida ekzistensial inqirozning yechimi insonning o'z "men"ini mutlaqlashtirishida emas, balki undan ma'lum ma'noda chekinishida namoyon bo'ladi. "Unselfing" jarayoni aynan shunday ma'naviy harakatni ifodalaydi. Muallif egoistik tabiatni shartsiz muhabbat, yoki ezgulikka evrilishini izohlarkan ushbu jarayondagi *ikkilamchi vositalar* sifatida quyidagilarni sanab o'tadi:

1. Go'zallik – tabiat go'zalligini his qilish insonni o'zligidan chetlatadi, yoki chalg'itadi [1]. Myordok tabiatni eng qamrovli, lekin inson energiyasini o'zgartirishda ta'siri kuchli bo'lmagan unsur sifatida biladi.

2. Xorijiy tilni o'rganish – yoki ilm-fanning axloqiy normalarni targ'ib qilishda yordami. Myordok bunga misol qilib Rus tilini o'zlashtirish jarayonini keltiradi: *"Love of Russian leads me away from myself towards something alien to me, something which my consciousness cannot take over, swallow up, deny or make unreal."*[4]. Ong va aql-idrokka begona bo'lgan bilimni egallash ham insonning o'zligiga berilgan e'tibordan chalg'ita oladi.

Shunga qaramasdan go'zallik va ilm-fanni o'rganish keyingi ikki konsepsiya oldida kuchsiz hisoblanadi. Egoyistik tabiatni shartsiz muhabbat yoki ezgulikka evrilish jarayonida san'at go'zalligini yaratish va undan rohatbaxsh bo'lish hamda inson munosabatlari *birlamchi vositalar* deb ta'kidlanadi.

3. San'at go'zalligini yaratish va undan rohatbaxsh bo'lish – San'at bu insoniyat maxsuli, olam va borliqning inikosidir. Olam esa Platonizm bo'yicha "ideal"ning nusxasidir. San'at qachonki borliqni haqqoniy ko'chirsa, inson egoyizmini yo'q qilishda eng kerakli vosita bo'la oladi. Myordok san'atning insoniyat ish-

faoliyatlari ichida eng tarbiyaviysi deb biladi va shu bilan birga odob-axloq normalari aynan san'at orqali ko'proq inson ongiga singishini aytib o'tadi. *"Good art which we love can seem holy and attending to it can be like praying"*, - deb ta'kidlaydi Myordok [4]. San'at ikkala tomonga ham, ya'ni uni yaratuvchi va undan foydalanuvchiga ham tarbiyaviy – axloqiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Inson munosabatlari – insonning olam va odamga bo'lgan e'tibori nazarda tutiladi. Ilm-fan rivojiga bo'lgan e'tiqod, insonlarning ratsional maxluqot va butunlay erkin ekanligi tushunchasi hayotga bo'lgan qiziquvchanlikni yo'q qilish xavfini vujudga keltiradi. Shu sababdan, e'tibor markazini o'zlikdan boshqalarga burib yuborish, inson nafsi va uning oqibatida paydo bo'luvchi yovuzlikning oldini olish demakdir. Yakka shaxs haqiqiy bo'lgan olamdan yuz o'girgan holda, o'zi yaratgan illyuziyalarda ma'no izlashga kirishadi va hayotga bo'lgan bunday ekzistensial yondashuv adiba tomonidan qoralanadi.

Myordok romanlarida qahramonlarning "unselfing" jarayoni ko'pincha fojiaviy vaziyatlar orqali amalga oshiriladi. "Yakkashox" romanida Hannaga oid voqealar, "Italyan qiz" romanidagi Elzaning fojiaviy taqdiri qahramonlarning illyuziyalardan haqiqatga qaytish jarayonini ifodalovchi misollar sifatida talqin qilinishi mumkin. Hanna va Elzaning o'limi qahramonlar hayotidagi ichki o'zgarish bilan bog'lanib, mavjudlikni yangicha anglashga olib keluvchi metamorfoza vazifasini bajaradi. "Bruno's Dream" romanida muhabbatning egoistik bo'lmagan shakllari o'rtasidagi farq namoyon bo'ladi. Asar qahramonlarining muhabbat haqidagi tasavvurlari orqali yozuvchi nafsga asoslangan muhabbatning cheklanganligini ko'rsatadi. Diana tomonidan Bruno o'lim to'shagida yotgan paytda his etilgan muhabbat esa egoyizmdan xoli shartsiz sevgi sifatida talqin qilinadi.

"Let love like a huge vault open out overhead…She lived the reality of death and felt herself made nothing by it."[3].

Mazkur holatda o'lim haqiqatini anglash qahramonning e'tiborini o'zligidan boshqa tomonga buradi. Natijada, quyi Erosga xos xudbin mayllar yuqori Eros – toza va shartsiz muhabbatga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Myordok fikricha yaxshi inson – bu kamtar insondir. Tavozeli inson egoyizmdan holidir, chunki u o'zligini birovdan ustun qo'ymaydi va shuning uchun haqiqatni boricha anglaydi va jamiyatdagi insonlarni qadrlaydi. Kamtar inson bu ongning ruhiy tiniqligiga erishgan, Myordok qarashlarida ekzistensial erkinlikning salbiy ta'siriga yechim bo'la oladigan "komil inson" obrazidir.

Xulosa

Ayris Myordok ijodida ekzistensializm va neoplatonizm qarama-qarshi falsafiy tizimlar sifatida emas, balki insonning ma'naviy takomillashuvini tushuntiruvchi o'zaro bog'liq konsepsiyalar sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi ekzistensializmning inson erkinligi, tanlovi va mavjudlik muammolarini qabul qilgan holda, mutlaq erkinlikning salbiy oqibatlarini tanqid qiladi. Muallifning falsafiy evolyutsiyasida asosiy yo'nalish *ekzistensial inqirozdan neoplatonik ezgulikka tomon harakat* sifatida belgilanadi. Ushbu jarayon "unselfing" konsepsiyasi orqali insonning o'zlikka qaratilgan e'tiboridan voz kechib, real borliq va boshqa insonlarga yuzlanishi bilan izohlanadi. Quyi Erosning yuqori Erosga transformatsiyasi esa nafsiy va egoistik istaklarning shartsiz muhabbat, ezgulik va haqiqat sari yo'naltirilishini ifodalaydi. Go'zallik, san'at va insoniy munosabatlar esa ushbu ma'naviy transformatsiyaning muhum vositalari bo'lib, o'ziga xos falsafiy-estetik tizimni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Antonaccio M. Picturing the Human: The Moral Thought of Iris Murdoch. – New York: Oxford University Press, 2000. – 244 p.

[2] Panizza S. Perception, Self, and Zen: On Iris Murdoch and the Taming of Simone Weil // Philosophies. – 2023. Vol. 8, Art. 64. – 20 p. – https://doi.org/10.3390/philosophies8040064.

[3] Murdoch I. "Bruno's Dream". – Vintage, 2001. – P. 218.

[4] Murdoch I. Existentialists and Mystics: Writings on Philosophy and Literature / ed. by P. Conradi. – New York: Penguin Books, 1997. – 576 p.

[5] Murdoch, I. The Fire and the Sun: Why Plato Banished the Artists // Existentialists and Mystics: Writings on Philosophy and Literature / ed. by P. Conradi. – London: Penguin Books, 1999. – P. 330.